

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI



“Iqtisodiyot” kafedrası
“Mikroiqtisodiyot” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: ISHLAB CHIQRISH VA ISTE'MOL

Bajardi: “Texnika” fakulteti “Iqtisodiyot” yo'nalishi
2 – kurs 1 – guruh talabasi Sultonova Madina

Ilmiy rahbar: Ermatov I.

Andijon - 2014 yil

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
1.Ishlab chiqarish mazmuni va mohiyati.....	5
2. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi.....	13
3. Ishlab chiqarish va iste'molning o'zaro bog'liqligi	20
4. Mavzuga oid test savollar.....	25
5.Tayanch iboralar.....	28
6.Xulosa.....	31
7.Foydalanilgan adabiyotlar.....	32

KIRISH.

Hozirgi kunda butun jahon iqtisodchilarining oldida turgan yirik masalalardan biri, bu shak shubhasiz, odamlarning bitmas tuganmas ehtiyojlarini qondirishdir.

Shu sababli, bugun dunyoning har bir chekkasini olmaylik, turli xildagi insonlarning iste'moli uchun kerak bo'ladigan mahsulotlarni tayorlashga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu jumladan bizning davlatimiz bo'limish O'zbekistonda bu borada ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi so'zlarini keltirishimiz lozim. **“Sobiq ittifoq markazi o'tkazgan yangi mustamlakachilik hududiy iqtisodiy siyosat oqibatida respublikada xalq xo'jaligi bir tomonlama xom-ashyo bazasi sifatida rivojlandi. Texnologiya, resurslar, shuningdek butlovchi buyumlarni bir qismini, xalq is'temoli mollarini etkazib berish jihatidan boshqa respublikalarga juda qaram qilib qo'ydi. Ammo “O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat, deb ta'kidlamoq uchun barcha asoslar bor. Respublikada hamma narsa: tabiiy boyliklar, unumdor yer, qudratli iqtisodiy va ilmiy - texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyat mavjud”**

O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom-ashyo resurslari to'plangan. Ularning 95 turi aniqlangan. Respublikada 370 ta kon ishlab, har yili 200 million tonnadan ortiq tog' jinslari qazib olinmoqda. Paxta tolasini yetishtirishda mamlakatimiz jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Markaziy Osiyo davlatlarida yetishtirilgan paxta tolasining 1,5 million tonnasi yoki 75 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi.

Hozirda dunyo aholisi soni taxminan 7 milyardga yetgan. Va bu ko'rsatkich kundan kunga yanada oshib bormoqda.

Kishilik jamiyatini taraqqiyoti va insonlarni yashashlari uchun zarur bo'lgan moddiy – ne'matlar tabiatda mavjud bo'lsada, ularni

inson extiyojlariga moslab tayyorlamoq, yetishtirmoq, ishlab chiqarmoq va qayta ishlab, ularni tayyor iste'mol maxsulotlariga aylantirmoq lozim. Buning uchun esa, eng avvalo ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan unsurlarni bo'lishi, ularni o'zaro birikishini shakllantirish lozimdir. Xullas ishlab chiqarishni tashkil etmoq kerak. Shundan keyin ishlab chiqarishni maqsadi, moxiyati, vazifasi va uning natijalarini tushunmoq kerak bo'ladi. Maqsad aniq bo'lgandan keyin esa, ishlab chiqarishni uzluksizligini ta'minlash, samaradorligini oshirib borish va iste'molchilarga to'g'ridan to'g'ri yetkazib berish ustvor vazifaga aylanadi. Biz ushbu kurs ishini tayorlashda asosan shu narsalarga katta ahamiyat qaratdik. Ishlab chiqarishni, iste'mol, xo'jalikni tashkil qilish va uni yuritishga ta'luqli tayanch iqtisodiy tushunchalar va iqtisodiy qonuniyatlar yoritib berishga harakat qildik.

1. Ishlab chiqarish mazmuni va mohiyati.

Ishlab chiqarish jarayoni - bu kishilarni o'zlarining iste'moli uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatidir. Moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish jarayoni kishilar iqtisodiy faoliyatining asosiy tomonidir. Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko'rinishini o'zining iste'moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan mehnat faoliyatidan iboratdir. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan hamda bir-birlari bilan o'zaro ma'lum munosabatda bo'ladilar. Ishlab chiqarish jarayonida bo'ladigan bu munosabatlarning shakllari va xususiyatlarini o'rganish hamda ularni bilgan holda ishlab chiqarishni ongli tashkil etish oliy maqsadga, ya'ni cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanilgan holda kishilarning o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishishning birdan-bir yo'lidir. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning ichki qonuniyatlari va uning rivojlanish xususiyatlari ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan ko'rsatib berilgan. Ular mehnat kishilar yashashining umumiy asosidir deb ta'riflaydilar. Demak, mehnat iste'mol qiymatlarini yaratuvchi sifatida, foydali mehnat sifatida kishilarning yashashi uchun hech

qanday ijtimoiy shakllarga bog'liq bo'lmagan holda abadiy tabiiy zaruriyatdir, mehnat bo'lmaganda kishi bilan tabiat o'rtasida modda almashinuvi ham mumkin bo'lmas edi.

Kishilar o'zlarining ongli maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini o'zgartiradilar va iste'moli uchun zarur bo'lgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasida moddalar almashinuvi bilan birga insonning o'zi ham har tomonlama kamol topib boradi, ya'ni kishilar o'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qo'llashni kengaytirib boradi.


Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni iste'mol qiymatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir, tabiat yaratgan narsalarni kishi iste'moli uchun o'zlashtirib olishdir, kishi bilan tabiat o'rtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, kishi hayotining abadiy tabiiy sharoitidir.

Ishlab chiqarish jarayoni insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlariga, hamma mamlakatlarga, el-yurtlarga va xalqlarga xos bo'lib, umuminsoniy kategoriyadir (tushunchadir).

Ma'lumki, bizda ish vaqtining anchagina qismi uy-ro'zg'or ishiga to'g'ri kelmoqda. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda, mamlakat aholisi uy-ro'zg'or ishlariga yiliga sarflagan vaqt ijtimoiy ishlab chiqarishga sarflangan ish vaqtiga qaraganda ko'proq ekan. Buning ustiga uy-ro'zg'or ishlari talaygina quvvatni talab qiladi. Ushbu va shunga o'xshash boshqa

misollar maishiy xizmatlar ko'rsatish sohalarini yanada rivojlantirish, uy-ro'zg'or ishlarini mexanizatsiyalash imkonini beradigan mashina va asbob - uskunalarni ko'plab ishlab chiqarishni talab etadi. Ehtiyojlar turi qancha ko'p bo'lsa shunga binoan ishlab chiqarishning tarmoq va sohalari ham kengayib boradi. Ularni o'rganish oson bo'lishi uchun ishlab chiqarish ikki katta sohaga: **moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga** ajratish lozim.

(1-chizma).



1-chizma. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi

O'z navbatida moddiy ishlab chiqarish sohasi **moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish** (masalan, avtomobil, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar va h.k.) va **moddiy**


xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar)dan iborat bo'ladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi ham **nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish** (masalan, musiqa asarlari, badiiy va ilmiy asarlar, ixtiro va kashfiyotlar) va **nomoddiy xizmatlar ko'rsatish** (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ga ajraladi. Bu sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqalar) zaruriy moddiy ne'matlar yaratiladi, xizmat ko'rsatish sohalarida esa turli xil ma'naviy ne'matlar yaratiladi va xizmatlar ko'rsatiladi. Bu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi o'z navbatida ikki bo'linmadan – birinchi va ikkinchi bo'linmalardan iborat bo'ladi. **Birinchi bo'linmada** ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalar va tashkilotlarining ishlab chiqarish iste'moli uchun zarur bo'lgan vositalar – stanok, mashina, asbob-uskuna, xom-ashyo va turli materiallar ishlab chiqariladi. **Ikkinchi bo'linmada** esa xalq iste'moli uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlari ishlab chiqariladi.

2-chizma



2-chizma . Moddiy ishlab chiqarish sohasi

Birinchi bo'linmada ishlab chiqarishdan chiqqan tovarlar shu yilning o'zida ikkinchi bo'limda va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin, ikkinchi bo'linmada yaratilgan tovarlar va nomoddiy soha xizmatlari o'z navbatida birinchi bo'linma uchun zarurdir. Shuning uchun ular o'rtasida doimo iqtisodiy aloqalar va munosabatlar sodir bo'lib turadi.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish jarayoni jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xos bo'lgan umumiy hodisa bo'lsa-da, kishilar, sohalar, korxonalar o'rtasida ma'lum shakldagi o'zaro munosabatsiz amalga oshishi mumkin emas. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayoni hamisha ma'lum bir ijtimoiy shaklda, ya'ni shu davrda amal qilayotgan

ishlab chiqarish munosabatlariga mos holda amalga oshadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday ishlab chiqarish, bir tomondan iste'mol qiymatni (naflilikni) yaratishdir, ikkinchi tomondan, moddiy vositalar va mehnatning sarflanishi, yangi qiymatning yaratilishi, boshqacha qilib aytganda, qiymatning o'sish jarayonidir. Har qanday mahsulot, shu jumladan bozor sharoitidagi yoki unga o'tish davridagi mehnat mahsuli ham ikki xil xususiyatga ega: iste'mol qiymatiga, ya'ni ma'lum bir naflilikka va qiymatga ega bo'lib, jonli va buyumlashgan mehnat sarfining ma'lum miqdorini o'zida mujassamlashtiradi. Bu tovarning o'zaro bog'liq va hamisha bir-birini taqozo qiladigan ikki tomonidir (bu haqda keyingi mavzuda batafsilroq to'xtalamiz).


Shuning uchun ham ishlab chiqarish jarayoniga hamisha uning pirovard maqsadi bilan birgalikda qaraladi. Ishlab chiqarishning maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib, kishilar ehtiyojini qondirish ekan, uning samarasi tovar va xizmatlarning natural va qiymat jihatdan o'sishida ko'rinadi. Shu nuqtai nazardan olganda ishlab chiqarish jarayoni hamisha naflilikni, ya'ni iste'mol qiymatni yaratish, ko'paytirish va qiymatlarning o'sish jarayoni hisoblanadi, uning asosiy maqsadi esa, iste'mol qiymatni, ya'ni nafli tovarni yaratishdan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishning cheklangan resurslardan foydalangan holda kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilishi va shunga zarur bo'lgan sifat va miqdorda iste'mol qiymati yaratishni bosh maqsad qilib qo'yishi

uning ijtimoiy yoʻnalishini ifoda etadi. Lekin bu umumiy ijtimoiy yoʻnalish aniq kishilarning, tadbirkorlarning manfaati bilan bogʻlangandagina amalga oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoki unga oʻtish davrida har bir mulk egasi yoki tadbirkor maʼlum miqdorda foyda olishni, sarflangan vositalariga, pul mablagʻlariga nisbatan koʻproq qiymatga ega boʻlishni maqsad qilib qoʻyadi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish jarayoni bir tomondan, isteʼmol qiymatlarini yaratish jarayoni boʻlsa, ikkinchi tomondan, qiymatning oʻsish jarayoni boʻlib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonini quyidagicha ifoda etishimiz mumkin (3-chizma).

3-chizma.




3-chizma. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni.

Ishlab chiqarish jarayonini ikki tomonlama tahlil qilib o'rganilganda uni to'g'ri tushunish imkonini beradi va turli xil chalkashliklar, munozarali tortishuvlarga chek qo'yadi. Bu yerda shuni hisobga olish lozimki, oldingi ishlab chiqarish jarayonining mahsuli bo'lib, shu ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan ishlab chiqarish vositalari qiymati ko'paymagan holda o'zi qancha qancha qiymatga ega bo'lsa shu miqdorda aniq mehnat bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatiga o'tkaziladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, naflilikni yaratishda kapital to'liq qatnashadi, qiymatni tashkil topishida esa qisman-qisman, ya'ni uni eskirgan qismi qatnashadi. Bu ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan ayrim tabiiy kuchlar qiymatga ega emas, shuning uchun ular tovarning iste'mol qiymatini hosil qilishda omil sifatida qatnashadi, lekin qiymatning tashkil topishida, uning ko'payishida qatnashmaydi. Demak, ishlab chiqarilgan tovarlarning nafliligini yaratishda har uchala omil: yer, kapital, ishchi kuchi qatnashadi, qiymatni tashkil topishida esa mehnatning o'zi qatnashadi. Bu holat 4-chizmada tushunarliroq tasvirlangan.

4-chizma.



4-chizma. Tovar va xizmatlar naflligi va qiymatining yaratilishida ishlab chiqarish omillarining roli.

Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonlama tabiati uning natijalarining ham ikki tomoni borligini ko'rsatadi.

2.Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi.

Ma'lumki, biror bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun bizga albatta turli xil resurslar kerak bo'ladi. Ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar faqatgina manba, zaxira sifatida emas, balki uni harakatga


keltiruvchi, unga ta'sir etuvchi omil sifatida qaraladi. Shu sababli, ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar boshqacha qilib aytganda - ishlab chiqarish omillari deb ataladi.

Iqtisodiy resurslar esa, tovar xizmatlar, ya'ni ne'matlar ishlab chiqarish uchun foydalaniluvchi barcha, tabiat, inson va inson tomonidan yaratilgan resurslar tushuniladi.

Resurslar quyidagi turlarga bo'linadi:

Moddiy resurslar - er, kapital;

Inson resurlari - mehnat va tadbirkorlik qobiliyati.



Jamiyatda xo'jalik yuritishning va mulkchilik shakllari turlichadir, lekin ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan soxalarda ishlab chiqarishni tashkil etishda qatnashadigan unsurlar (elementlar, iqtisodiy kategoriyalar) bir xil bo'ladi. Ular tarkibini quyidagi unsurlar tashkil etadi.

Ya'ni:

1. Mehnat (ishchi kuchi);

2. Mehnat predmeti;
3. Mehnat qurollari
4. Mehnat vositalari.

Bu to'rtta unurni ishlab chiqarish omillari deb ataladi. Biz ularni xar biriga aloxida tushuncha va ta'rif berib utamiz.

Mehnat (ishchi kuchi) iqtisodiy kategoriya bo'lib, mehnatga layoqatli bo'lgan xar bir sub'ektning maqsadlar yo'lidagi jismoniy va aqliy qobiliyatining majmuasidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 30 mln 115 ming axoli bo'ladigan bo'lsa, uning 51,6 foizi mehnatga yaroqli bo'lgan qishilardir. Qolganlari esa qariyalar, yoshlar va nogironlar hisoblanadi.

Qishilar mehnati yo'naltirilgan va mehnat ta'sir qiladigan narsalarga **mehnat ashyolari** deb ataladi. Masalan, yer va undagi maxsulotlar, xomashyolar, metallar, suv, har xil materiallar va xokazo.

Inson mehnati bilan mehnat predmetiga va tabiatga ta'sir qiladigan narsalarga **mehnat qurollari** deyiladi. Ya'ni, har xil turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, qurollar, stanoklar va xokazolar. Misol, inson o'z mehnatini mehnat quroli bo'lgan arraga biriktirib, o'rmon xomashyosini qirqishi mumkin, eshik yasashi mumkin va xokazo.

Bevosita ishlab chiqarishga qatnashmaydigan, lekin unga ko'maklashadigan narsalar **mehnat vositalari** deb ataladi.

Masalan, ko'priklar, kanallar, temir yo'llar va xokazolar. Lekin hozirgi zamon iqtisodchi olimlari ishlab chiqarish

omllarini turli tomonlarini o'rganib chiqib, ularning zamonaviy va qulay bo'lgan tarkibini tuzib chiqdilar.

yer;

mehnat;


kapital;

tadbirkorlik qobiliyati;

axborotlar;

ekologiya.

Ko'rib turganimizdek bu yerda tadbirkorlik qobilyati, axborotlar va ekalogiya degan tushunchalar mavjud.



3-rasm. Ishlab chiqarish omillari.

Yer ishlab chiqarishning tabiiy omilidir. U inson faoliyatining natijasi emas, balki tabiat in'omidir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi uchun yer ishlab chiqarishning asosiy va bosh vositasi hisoblanib, u bir qator xususiyatlarga ega:

yer tabiiy va sun'iy hosildorlikka ega bo'lishi mumkin;

yer - tabiatning in'omi, u erkin asosda takror ishlab chiqarilishi mumkin emas; insonning yer hosildorligiga ta'siri cheksiz bo'lishi mumkin emas, chunki qaytimning kamayib borish qonuni bu sohada ham amalda bo'ladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan ishlab chiqarish jarayonida foydalaniluvchi asbob - uskunalar, mashinalar, inshootlar umumiylikini ifoda etuvchi kapital sifatiga bog'liqdir.

Insonning bilimi, ko'nikmalari, sog'lig'i ham iqtisodiyotda inson kapitali sifatida baholanadi.

Axborotlar ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish borasidagi bilimlar tizimini ifoda etadi. Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida axborotlar muhim o'rin tuta boradi.

Ishlab chiqarishning ekologik omili iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi yoki cheklovchi kuch sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish omillari tizimida tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlik qobiliyatiga ishlab chiqarish omillarini eng samarali qorishtirish omili sifatida qaraladi. Tadbirkor milliy iqtisodiyot tarmoq ishlab chiqarish korxonalarida yoki xizmat ko'rsatish muassasalarining ma'lum bir yo'nalishi bo'yicha o'z iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etuvchi inson - shaxsdir. O'zbeqiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida" gi qonuniga muvofiq: "**Tadbirkorlik** - mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulqiy javobgarlik asosida, qabul qilingan qonunlar

doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir." Tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatini mohiyatini chuqurroq ochib berish uchun Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: **"... hamdo'stlikdagi boshqa davlatlarning fan - texnika taraqqiyoti yutuqlaridan, yangiliklaridan, texnologiyalari, telekommunikasiyalar va kosmik aloqa vositalaridan bahramand bo'lish, zarur xom-ashyo va tayyor mahsulotni, shu jumladan xalq is'temol mollarini jahon narxlaridan past narxlarda sotib olish, shuningdek, o'z mahsulotini sotish uchun keng ko'lamdagi bozorning mavjudligidan oqilona foydalanish lozim"**

(I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. "O'zbekiston" 1998y. 27-b.) Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan ravnaq toptirishda asosiy o'rin tutishini tushunib yetish lozim.

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qaror toptirish jarayonida insonlarning tadbirkorlik qobiliyatlari va ko'nikmalari eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. **"Bir necha o'n yillar davomida respublikada ssenariysi uzoq Markazda to'qilgan qarorlar amalga oshirildi, "kompaniyalar" o'tkazildi. O'zbekistonning chinakam manfaatlari o'ziga xos sharoiti va imkoniyatlari pisand qilinmadi. Natijada xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xom-ashyo tuzilmasi shakllandi. Respublika ayrim xom - ashyo turlarini yoqilg'i asbob - uskunalar va**

texnologiyalarnigina emas, balki hayotiy muhim oziq - ovqat mahsulotlarini, xalq is'temoli mollarini chetdan keltirishga majbur. (I. A. Karimov "O'zbeqiston buyuk kelajak sari" T. "O'zbeqiston" 1998y. 36-b.) bo'lgan bo'lsalar, iqtisodiyotni erkinlashtirish asnosida tadbirkorlar uchun tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochildi.

Endi oltita omilni birikish jarayonlarini tushuntiramiz. Shu oltala omilni birikishi tufayli ishlab chiqarish tashkil etiladi. Bunda inson omili va uning kobilyati asosiy omil xisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonini quyidagi yig'indilarni natijasi deb qaraladi.

Ya'ni,

$$I/ch = A + V + S + D + E + F.$$

Bunda: I/ch - ishlab chiqarish,

A - yer,

V - kapital,

S - inson mehnati (ishchi kuchi),

D - tadbirkorlik qobilyati,

E - axborotlar,

F - ekalogiya.

Ko'rib turganimizdek qachonki yuqoridagi omillarning barchasi birgalikda ishlab chiqarishga jalb qilingandagina, samara va yuqori foydaga erishish mumkin.

Ma'lumki qishilarni extiyojlari ko'p qirrali bo'lib, u cheksizdir bu extiyojni ta'minlab borish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish soxalarining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish

o'zini maqsadiga va mazmuniga ega bo'ladi. Ishlab chiqarish tufayli moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqariladi, lekin u cheklangan iqtisodiy resurslar bilan bajariladi. Resurslar cheklanganligi sababli ulardan tejab-tergab foydalanishdan maqsad undan unumli foydalanishga erishishni ta'minlab, kishilarni kundalik va undan keyingi moddiy va ma'naviy extiyojlarni qondirib borish asosiy maqsad xisoblanadi. Ishlab chiqarishni maqsadi va mazmuni ham shundan iborat bo'lmog'i lozim. Ishlab chiqarishni zaminida inson mehnati yotadi. Mehnat tufayli ishlab chiqarish vujudga keltiriladi, mehnat tufayli maxsulotlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko'rsatiladi. Shu sababli iqtisodchilar ta'kidlab o'tganlaridek, mehnat kishilar hayotining asosi xisoblanadi umuman olganda inson mehnati bilan tabiatga ta'sir ko'rsatadi, uni ya'ni tabiat moddalari o'zgarishi uchun mehnat bilan yangi texnika, texnologiyalar yaratadi, bu yo'lda o'zini ilmini, malakasini ham, oshirib boradi.

3.Ishlab chiqarish va istemolni o'zaro bog'liqligi.

Iste'molchi va korxonalar bozor munosabatlarining asosiy agentlari bo'lib hisoblanadi. ular bozorda talab va taklifni vujudga keltiradilar, muvozanat narxining qaror topishida faol ishtirok etadilar. ushbu holatda, zamonaviy iqtisodiyot iste'molchiga bozor iqtisodiyotining eng oliy bo'g'ini sifatida murojaat etadi,

chunki u o'z pul mablag'lari bilan, ishlab chiqaruvchi tomonidan chiqarilgan tovarlarga "ha" yoki "yo'q" deya ovoz beradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda iste'mol xarajatlari YaMMning 3/4 qismini tashkil etadi. Bu esa iste'molchilar hatti- harakati iqtisodiy rivojlanishni ta'min etishda eng muhim omil bo'lib hisoblanishidan darak beradi.

Odatda istemolchi hatti - harakati quyidagilar bilan izohlanadi:

Foydali, oqilona hatti - harakat, yani o'z daromadidan ko'radigan navflilikni oshirish.

Iste'molchining tovar afzalligini ajratishida o'rtacha tipdagi iste'mol bozoridagi taklif etiladigan tovarlar va xizmatlarga nisbatan aniq - ravshan fikrga ega bo'ladi deb, hisoblashimiz mumkin. Biz faraz qilamizki, haridorlar harid qilishi mumkin bo'lgan har bir keyingi birlik mahsulotdan pirovard natijada qanday foyda ko'rishlarini aniq tasavvur qiladilar.

Byudjetdagi (oila daromadidagi) cheklanish.

Narxlar. Tovarlarini ishlab chiqarish iqtisodiy resurslar sarfini talab etadi va shuning uchun ular ma'lum narxga ega bo'ladi. Daromadi cheklangan haridor cheklangan miqdorda tovar harid qiladi. Shuning uchun muqobil mahsulotlar orasidan o'z ehtiyojlarini maqbul tarzda qondiradigan tovarlarni tanlab olish zaruri bo'ladi.


Iste'molchi xulqi chegaraviy foydalilik va farqsizlik egri chiziqlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Chegaraviy foydalilik deyilganda, iste'mol qilishning bir birlikka o'sishida tovar umumiy foydaliligining o'sishi tushuniladi. Shu bilan bir qatorda iste'mol

qilinayotgan tovar miqdori o'sib borishi bilan, har bir qo'shimcha tovar birligining chegaraviy foydaliligi kamayib boradi.

Iste'molchi imkon darajasida, cheklangan daromadlariga shunday tovarlar guruhini xarid qilishga intiladiki, toki unga o'z ehtiyojlarini eng yuqori darajada qondirish imkonini bersin.

Har bir farqsizlik egri chizig'i iste'molchi uchun bir xil navflikka ega bo'lgan, mahsulotlarning har - xil to'plamlarini grafik tarzda aks ettiradi.



No Farqsizlik egri chizig'i

Befarqlik egri chizig'ining barcha nuqtalarida bir xil darajadagi foydalilik ta'minlangani uchun F mahsulotni iste'mol hajmining o'sishi hisobiga olinadigan umumiyfoydalilikning kamayishi S mahsulot iste'molining kamayishini muvozanatga keltirishi zarur.

mahsulotlarga bo'lgan talab hajmining ko'p yoki oz bo'lishi oila (uy xo'jaligi)ning moliyaviy imkoniyatlariga, ya'ni oila byudjetiga bog'liq. Oila byudjeti yoki oila imkoniyati deb, eng yuqori miqdorda mahsulotlar sotib olish mumkin bo'lgan mablag'larga aytiladi, agar oila daromadi pasaysa unda egri chiziq

pasayadi, agar oila byudjeti o'zgarmasdan tovarlar bahosi ko'tarilsa ham byudjet egri chizig'i ham pasayadi va aksincha.

Agar mahsulotlar narxi va iste'molchilar daromadi bir xilda oshsa yoki pasaysa byudjet egri chizig'i o'zgarmaydi.


byudjet egri chizig'i har bir oilaning nima olishga qodirligini ko'rsatsa, befarqlik egri chizig'i har bir oilaning nima olishga xohishi borligini ko'rsatadi. Agar biz ikki turdagi F (oziq-ovqat) va S (kiyim bosh) tovar mavjud, deb faraz qilsak va uni xarid qiluvchi xaridorning daromadi 40 dollar deb qabul qilsak; oziq-ovqat mahsulotining bir birligi bir dollar, kiyim-bosh bir donasining bahosi 2 dollar bo'lsa va 40 dollar daromadning hammasi kiyim harid qilish uchun sarflansa, u holda xaridor eng ko'pi bilan 20 birlik A turdagi tovardan harid qilishi mumkin. Buni quyidagi jadval va chizma ma'lumotlaridan ko'rish mumkin. V, S va D variantdagi tovarlar to'plami 40 dollar daromadni sarf qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Tovar tanlov va budjet chizig'i

Tovarlar to'plami (variantlar)	Oziq-ovqatlar (F)	Kiyim-bosh (S)	Umumiy harajatlar (dollar)
A	0	20	40
B	10	15	40
C	20	10	40
D	30	5	40

E	40	0	40
---	----	---	----

Jadval ma'lumotlarini umumlashtirib, grafik tarzda byudjet chizig'ini hosil qilish mumkin.



Oziq-ovqatlar.

Agar oilaning talabini xohlagan mutanosiblikdagi tovarlar qondirsa, unda oilaning bunday tovarga bo'lgan talabi befarq bo'lib hisoblanadi.

Mavzuga doir testlar:

1. Ishlab chiqarish jarayoni nima?

- A) Ishlab chiqarish vositalarini iste'mol qilinishi;
- B) Moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyat;
- S) Mehnat predmetlaridan foydalanish jarayoni;
- D) Ishchi kuchidan samarali foydalanish jarayoni;
- E) Hamma javoblar to'g'ri;

2. Ishlab chiqarishning shaxsiy omili nima?

- A) Ish kuchi;
- B) Ishlab chiqarish vositalari;
- S) Mehnat qurollari;
- D) Kapital;
- E) Yer;

3. Ishlab chiqarish omillarining birikish usulini ko'rsating?

- A) Mehnat mahsuli ishlab chiqaruvchiga ta'luqli bo'ladi;
- B) Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchining mulki hisoblanadi;
- S) Mehnat resurslari bilan ishlab chiqarish vositalari o'rtasida mulkiy tafovut bo'lmaydi;
- D) Ishlab chiqarish vositalari yagona shaxs mulki hisoblanadi;
- E) Mehnat mahsuli ishlab chiqaruvchiga tegishli bo'lmaydi;

4. Ishchi kuchi tushunchasining mazmunini aniqlang:

- A) Moddiy ne'matlar yaratishda qatnashuvchi shaxs;
- B) Bilim va malakaga ega bo'lgan kishi;
- S) Ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi shaxs;
- D) O'z ehtiyojini qondira oladigan kishi;

E) Insonning mehnat qilishga boʻlgan aqliy va jismoniy qobiliyatlari yigʻindisi;

5. Ijtimoiy ishlab chiqarish nima?

A) Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish jarayoni;

B) Iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;

S) Ishchi kuchini ishlab chiqarish;

D) Jamiyat miqyosida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni;

E) Ijtimoiy munosabatlarni ishlab chiqarish jarayoni;

6. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizigʻi:

A) Ishlab chiqarish koʻzda tutilgan ikkita tovarning miqdoriy nisbatini;

B) ikkita tovarning eng yaxshi kombinasiyasini;

S) resurslarning berilgan miqdorida tovarlarning muqobil kombinasiyasini;

D) ishlab chiqarish omillari unumdorligining kamayib borish qonunining harakatga kelish vaqtini koʻrsatadi.

7. Quyidagilarning qaysi biri ishlab chiqarishning moddiy omili hisoblanadi?

A) ishchi kuchi;

B) tabiiy omillar;

S) xom ashyo, materiallar, bino va inshootlar, asbob va uskunalar;

D) tadbirkorlik faoliyati.

8. Iqtisodiy faoliyat turlaridan qaysi birining natijasi boʻlib moddiy-ashyoviy qoʻrinishdagi natijalar olinadi?

A) ayirboshlashda;

B) ishlab chiqarishda;

S) taqsimotda;

D) isteʼmolda.

9. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?

A) vaqt birligida yaratilgan mahsulot hajmi bilan;

B) qancha resurs sarflab qanday natija olinganligi bilan;

S) sarf-xarajatlarning qoplanganligi bilan;

D) foydaning ko'pligi bilan.

10. Quyidagilarning qaysi biri ishlab chiqarishning moddiy omili hisoblanmaydi?

A) bino va inshootlar, mashina, asbobva uskunalar;

B) ishchi kuchi;

C) transport vositalari;

D) xomashyo va materiallar.

11. Ishlab chiqarish omillari qaysi qatorda to'liq berilgan?

A) yer, kapital;

B) tabiat, ishchi kuchi, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, axborot (informatsiya);

C) yer, tadbirkorlik, ishchi kuchi;

D) ishchi kuchi, kapital, axborot (informatsiya), tabiat.

Tayanch iboralar:

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i - iqtisodiyotda to'la bandlik va ishlab chiqarishning boshqa omillaridan to'la foydalanilgan sharoitda ikkita mahsulotni ishlab chiqarishning har xil kombinasiyalarini ko'rsatuvchi egri chiziq.

Ishchi kuchi - insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig'indisi va mehnat qilishga layoqati bo'lib, har qanday jamiyat ishlab chiqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Aholining jismoniy va aqliy mehnatga layoqatli qismi ishchi kuchini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari - ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turini ishlab chiqarishga korxonadan tomonidan sarflangan moddiy sarflar. Doimiy, o'zgaruvchan va yalpi xarajatlar farqlanadi.

Inson kapitali - insonlar tomonidan o'z umrlari davomida to'plangan bilim, ko'nikma, sog'liq va hayotiy tajriba.

Ishlab chiqarish jarayoni - kishilarning maqsadni ko'zlab amalga oshiriladigan faoliyati bo'lib, iste'mol uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan jarayon.

Ishchi kuchi - insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlari yig'indisi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish - o'zaro bog'langan va aloqada bo'lgan barcha individual ishlab chiqarishlarning yig'indisi.

Yalpi milliy mahsulot - bu ma'lum vaqt davomida yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati.

Ishlab chiqarishning umumiy samarasi - bu ishlab chiqarishga sarf qilingan resurslar xarajatlari bilan hosil qilingan daromadlar o'rtasidagi nisbatdan iboratdir;

Mehnat unumdorligi - mahsulot va xizmatlarga yoki ular birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqtidir;

Zaruriy mahsulot – bu ishlab chiqaruvchi sub‘ektlarning (ishchi, xizmatchi, dehqon, fermer va h.k) zaruriy ish vaqtida yaratgan va ularni ishchi kuchini qayta tiklash uchun zarur bo’lgan mahsulotlardan iboratdir;

Qo’shimcha mahsulot - bu ishlab chiqaruvchi sub‘ektlarning qo’shimcha ish vaqtida yaratilgan mahsulotidir. U sof mahsulotining zaruriy mahsulotdan oshiqcha qismi bo’lib, tadbirkorlarga, mulkdorlarga va davlatga tegishli bo’ladi;

Ishlab chiqarish funksiyasi - bu ishlab chiqarish omillari bilan uning samaralari o’rtasidagi bog’liqlikdan iborat;

Qo’shilgan kapital - bu ishlab chiqarishda band bo’lgan kapital miqdoriga yangi qo’shimcha ravishda qo’shilgan kapital yoki kapital miqdorining o’sgan qismidir;

O’rtacha mahsulot - ishlab chiqarishga jalb qilingan mehnat resursi va kapitalning bitta birligiga to’g’ri keladigan mahsulot miqdoridan iborat;

So’nggi qo’shilgan mahsulot - so’nggi qo’shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga ko’paygan (o’sgan) mahsulotni bildiradi.

Xulosa.

Biz xulosa o'rnida shuni takidlab o'tishni joiz deb bildik. Men ushbu kurs ish orqali ishlab chiqarishni mamlakat va insonlar hayoti uchun qay darajada ahamiyati katta ekanligini anglab yetdim.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida bizning asosiy masalamiz iqtisodiyotimiz strukturasi tubdan o'zgartirish, xom ashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, uning sifatini va raqobatga bardoshlilikini jahon bozori talablari darajasiga yetkazibgina qolmay ularni istemolchilarga yetkazib berishdan iborat. Bunda tarkibiy o'zgarishlarda respublika uchun eng asosiy hisoblangan tarmoqlarni jumladan, yoqilg'i-energetika va g'alla komplekslarini rivojlantirishda iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash shuningdek, bu o'zgarishlar respublika iqtisodiyoti uchun ustuvor hisoblangan, boy tabiiy, mineral xom-ashyo, mehnat resurslariga asoslangan hamda istiqbolda xalqaro va davlatlararo mehnat taqsimotida, jahon bozorida O'zbekistonning mustahkam o'rin egallashini kafolatlovchi ishlab chiqarishlarni ildam sur'atlar bilan o'stirishga qaratilishi lozim. Jahon talablari darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, ularning raqobatga bardoshligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun korxonalarni zamonaviy ilg'or texnologiya, eng yangi uskunalar, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar uchun mo'ljallangan ixcham uskunalar bilan jihozlash, ichki bozorni to'ldirish uchun kerakli mahsulotni ishlab chiqaradigan kichik, ixcham texnologiyalarni konsepsiyasini va milliy dasturini ishlab chiqish zarurligi g'oyasi ilgari suriladi. Bunday dasturning ishlab chiqilishi va amalga oshirila boshlanishi - iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining ustivor vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. -T: O`zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim (2013 yil 12-fevralda O`zR Vazirlar Mahkamasining 2012 yil yakunlariga bag`ishlangan majlisida so`zlagan nutqi). «Xalq so`zi» gazetasi, 2013 yil 13-fevral soni.
3. Shodmonov Sh.Sh., Jo`raev T.T., Romanovskiy G.M. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo`nalishi uchun). -Toshkent, 2004. -28b
4. O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko`rsatkichlari. -T.: YuSAID, 2005.
5. Avt. jamoasi. Menejment va biznes asoslari. T.: "Mehnat" 1997.
6. Rasulov M. "Bozor iqtisodiyoti asoslari". T.: "O`zbekiston" 1999.
7. ABDURAHMONOV Q. X. "MEHNAT IQTISODIYOTI VA SOTSILOGIYASI." T.: "MEHNAT" 2002.
8. Hakimova M, Xo`jaev X, Mahmudov B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: "O`qituvchi" 1997.
9. Azizxo`jaev A va boshq. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O`zbekiston" 2002.
10. Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: "Mehnat" 1997.
11. Avt. jamoasi. Menejment va biznes asoslari. T.:

"Mehnat" 1997.

12. Robert Pindyck, Daniel Rubinfeld "Mikroiqtisod"
"sharq" nashriyoti Toshkent 2002.

13. Erkin Egamberdiyev "Mikroiqtisodiyot" G'ofur G'ulom
nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi Toshkent 2005.

14. Undan tashqari quyidagi internet sayitlaridan ham
foydalanildi.

<http://www.reviev.uz>

<http://www.cer.uz>

www.stat.uz

www.uza.uz

www.uzexport.com